

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH

Hamroyeva Lola Komil qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Hikmatova Jamila Fatoh qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos nutq xususiyatlari, tilni boyitishda muloqot jarayonida yuzaga keladigan yangi vazifalar, muloqot jarayonida so'z boyligi va nutqning rivojlanishi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh davri, sog'lom nutq, nutqni rivojlantirish, nutqni o'stirish, muloqot, so'z boyligi, psixologik rivojlanishi, oilaviy muhit, bolani tinglash, talaffuz.

Kichik yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish o'ziga xos ahamiyatga ega. Sababi bolaning nutqiga yoshligidan e'tibor bermasak, bola katta bo'lgan sari nutqida muammolar yuzaga kela boshlaydi. Bu muammolarni bartaraf etish yoshi ulg'aygan sari bu borada to'siqlarga uchrab boradi. Nutqni to'g'ri rivojlantirmasdan bola psixologik rivojlanishi mumkin emas, shuning uchun nutqni rivojlantirish bizning pedagogik faoliyati mizning muhim yo'nalishidir. Bolaning so'z boyligini kengaytirmasdan og'zaki muloqotni yaxshilash mumkin emasligini tushunib, uni mustahkamlash va faollashtirishga katta e'tibor berish kerak.

Bolaning nutqini rivojlantirishga oila a'zolari va tarbiyachi yetakchi rol o'ynaydi. Sababi bola oila a'zolarini va tarbiyasi bilan ko'proq muloqotda bo'ladi. Bolaning 3 yoshgacha bo'lgan davri hayot jarayonlarida, mustaqil o'yinda, atrof-muhitdagilar bilan muloqotda va bevosita ta'lim faoliyati jarayonida shakllanadi. Bolaning yoshlikdagi muloqoti juda ham katta ahamiyatga ega. Sababi asosan muloqot jarayonida nutq shakllana boradi va tarbiyaviy ta'sirning asosiy shakli hisoblanadi. Bola hayotning uchinchi yili ya'ni 3 yoshdan keyin bolaning nutqini rivojlantirishning asosiy davri boshlanadi. Tarbiyalanuvchi bola bilan ko'proq muloqot qilish, uning fikrini aytishga ko'maklashish, bolani erkin bo'lishiga zamin yaratish lozim. Bola ota-onasi yoki tarbiyachisi bilan erkin muloqot qilishi uchun unda birinchi o'rinda qo'rquv bo'lmasligi muhim ahamiyatga ega. Bola bilan muloqotda kattalar unga tushuntirishlari kerak. Shu bilan birga, yangi so'zni qayta-qayta takrorlatish va oddiy jumlamini yaratishga yordam berish kerak. Aynan shu



yoshda bolaning soʻz boyligi 5-7 marta koʻpayadi. Bolaning kundalik hayotda ishlatadigan soʻzlari tufayli faol soʻz boyligi ham juda tez oʻsib boradi. Asosiy maqsad – bola bilan suhbatlashish, shunda u nafaqat kattalarni tinglaydi, balki unga aytmoqchi boʻlgan narsani eshitadi va tushunadi, shunda u kelajakda tengdoshlari bilan muloqot qilishda oʻz bilimlaridan foydalanadi. Koʻpgina bolalarda oilaviy muhit nosogʻlomligi sababli juda ham kuchli boʻladi. Shuning uchun ham bola oʻz fikrini ayta olmaydi, natijada nutqni rivojlantirish bilan xavfli turtki boʻladi. Koʻpgina bolalar qoʻrquv hissi natijasida kamgap boʻlib qoladi. Bunday bolalar bilan koʻproq shugʻullanishi kerak. Nafaqat tarbiyachi pedagoglar balki ota-onalar ham avvalo oʻz ustilarida, keyin esa farzandlari bilan koʻproq shugʻullanishlari va koʻproq muloqotda boʻlishlari kerak. Qachonki bola erkin boʻlsagina oʻz fikrini namoyon qila oladi. Bola bilan muloqot qiladigan har bir inson u bilan turli xil shevada emas, balki adabiy tilda gapirishi kerak. Shunda bolaning talaffuzi chiroyli boʻladi. Turli xil erkanishlar bilan ham erkalatib soʻzni buzib gapirish ham tavsiya etilmaydi. Chunki bolaning tili shunga oʻrganib qoladi va bola ulgʻayganida ham bu odatlarni yaʼni, bunday ohangda gapirishlari oʻzgarmay qolib ketishi mumkin. Tarbiyasi qanday shevada gapirishdan qatʼi nazar tarbiyalanuvchilar bilan adabiy tilda gapirishi kerak. Shunda bolaning talaffuzi chiroyli shakllanadi.

Hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri ota-onalarning bolaga oʻz tillarini yaxshi bilmasdan turib, xorijiy tillarga oʻrganishga majburlashdir. Men buni toʻgʻri tanlov deb hisoblamayman. Axir bola oʻz ona tilini bilmay turib qanday qilib xorijiy tillarni oʻrganishi mumkin? Ona tilini oʻrgatish va nutqni rivojlantirish bolalarni axloqiy va estetik tarbiyalashning boshqa muammolarini hal qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Bola yoshligidan ona tilini yaxshi oʻrgansa nutqi ham ravon boʻladi, vataniga mehrli va sodiq boʻlib voyaga yetadi. Xorijiy tillarni oʻrganish juda ham yaxshi lekin, birinchi oʻrinda ona tilini oʻrganishi kerak boladi. Hozirgi bolalar ona tilida toʻgʻri va toʻliq gapira olmay chet tillarni qoʻshib gapirishadi.

Bola nutqini rivojlantirish uchun turli xil oʻyinlardan foydalansa boʻladi. Bolaning asosiy faoliyati oʻyin hisoblanadi. Shuning uchun ham oʻyin orqali juda ham koʻp maʼlumotlarni qabul qiladi va bu maʼlumotlar xotirasida uzoq muddatda qoladi.

Bolani tinglay olish bu muammolarni yechishga yordam beradi. Bolaning ichki dunyosini oʻziga sigʻmaydi. Shuning uchun ham koʻp gapiradi. Yoshligida bolalar juda izlanuvchan boʻlib, juda koʻp savollar berishadi. Bundan foydalanish va ularni qiziqtirgan hamma narsani sabr-toqat bilan va yaxshilab aytib berish juda muhimdir. Shu bilan birga, bolalar bilan hissiy aloqani buzmaslikka harakat qilish, bolaning mustaqil fikrlashini ragʻbatlantirish va u bilan erishgan yutuqlaridan xursand

bo‘lishingiz kerak. Bola uchun har bir voqea ham katta sarguzasht hisoblanadi. Bola biror nimani gapirganda uni maroq bilan tinglash kerak. Shunda unda “Meni ham fikrni eshitadiganlar bor ekan” degan fikr paydo bo‘ladi va yana ertasi kuni boshqa voqealarni aytib beradi. Bu orqali nutqi rivojlanib boradi. Bola biror gapni aytayotgan vaqtda eshitmaslik, unga “jim o‘tir” deyish uning ishtiyoqini so‘ndiradi. Natijada bola kamgap bo‘lib qoladi. Bola qancha ko‘p gapirsa shuncha so‘z boyligi ortib boradi va nutqi yaxshi rivojlanadi.

Sog‘lom nutq madaniyatini tarbiyalashda asosiy maqsad bolaning barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, ovoz apparatidan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish va bu ish qanchalik tez boshlansa, natijalar shunchalik yaxshi bo‘ladi. Bola bilan muloqot qilishda e‘tibor, qiziqish ko‘rsatish, bola bilan iloji boricha turli mavzularda suhbatlashish kerak. Agar bola muloqot qilishni istamasa, unga sabr bilan yordam ko‘rsatish kerak. Bunday vaziyatga jahl bilan javob qaytarish samara bermaydi.

Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yosh bu insonning jismoniy va ma‘naviy rivojlanishining eng jadal davri. Bolaning kelajagi ko‘p jihatdan ana shu yosh davrida rivojlanishi uchun qanday pedagogik va gigiyenik sharoitlar yaratilganiga, u qanchalik jismonan baquvvat va sog‘lom bo‘lishiga, voyaga yetganida qanday aqliy qobiliyat va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishiga bog‘liq. Shuning bu yosh davrida ota-ona, bola uchun mas‘ul shaxs va tarbiyachilardan yuqori darajadagi e‘tibor va bola shaxsini hurmat qilish, uni tushunish, tinglash hamda fikrlarini inobatga olish talab etiladi. Bu vazifalar bugungi kunning davr talabidir! Zero, kelajak – yoshlar qo‘lida!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” 2016
2. G.Q.Hasanova, Z.B.Jalilov. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. “Durdona” Buxoro – 2021.
3. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik 2018.
4. Zuhra Ro‘zieva. Nasiba Erxonova. “Tarbiyachi kitobi. Nutq o‘stirish” Elektron kitob. 2021
5. J.F.Hikmatova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lomlashtirish jarayonini tashkil etishda jismoniy tarbiyaning ta‘limiy va tarbiyaviy vazifalari”// Ta‘limning zamonaviy transformatsiyasi//199-202-betlar// www.tadqiqotlar.uz.

